

## **Belgilab berilgan vazifalar ijrosi yuzasidan 2025- yilning IV- choragida amalga oshirilgan ishlar**

Qoraqalpog‘iston Respublikasi statistika boshqarmasi Kengashining kengaytirilgan yig‘ilishini boshqarma boshlig‘i T.Ganiyev ochib berdi va yig‘ilish kun tartibidagi navbatdagi masala muhokamasiga o‘tilishi takidlandi.

Kun tartibira muvofiq, 2026-yilning 27-fevral kuni O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining Hay‘at yig‘ilishida ko‘rib chiqilgan masalalar va kelgusida statistika organlari tomonidan amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar yuzasidan belgilab berilgan vazifalarga to‘xtalib o‘tdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-21-son hamda “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yo‘lida ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha islohotlar dasturlari va “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturi to‘g‘risida” PF-22-son Farmonlarini ijrosini ta‘minlash qo‘mita hay‘ati tomonidan alohida ta‘kidlanganligi aytiladi.

Shuningdek, hududiy statistika organlari tomonidan mazkur farmonlarda statistika tizimiga yuklatilgan vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli bajarish, tahlillar samaradorligini oshirish hamda ijro intizomini kuchaytirish zarurligi ham tushuntirib o‘tiladi.

Kengash yig‘ilishida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi hamda Milliy statistika qo‘mitasi tomonidan belgilab berilgan vazifa va topshiriqlardan kelib chiqqan holda, "2025-yil uchun II yarim yillik ish rejasi"dagi vazifalar ijrosi, 2025-yil uchun Statistika dasturining bajarilishi holati ko‘rib chiqildi.

boshqarma hamda tuman (shahar) statistika bo‘limlarining 2025-yildagi faoliyati natijalari ko‘rib chiqildi.

Yig‘ilishda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldagi “Statistika ishlarini tashkil etish va yuritish tizimini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–27-sonli Farmoni va “O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–75-sonli qarorida belgilangan vazifalar ijrosi mukohama qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-fevraldagi 100-son Qarori bilan tasdiqlangan 2025- yil uchun Statistika dasturiga muvofiq, yanvar-dekabr oylarida jami 966 ta statistika dasturida belgilangan ishlar muddatlarda to‘liq bajarildi.

Hisobot davrida, Qoraqalpog‘iston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi dastlabki yakunlari bo‘yicha statistika ma‘lumotlari tayyorlanib,

Qoraqalpog‘iston Respublikasi hokimligi, Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi hamda boshqa idoralarga taqim etildi.

Shuningdek, 2024-yil yanvar-dekabr, 2025-yil yanvar-mart, yanvar-iyun, yanvar-sentabr hamda yanvar-dekabr davrlari uchun “Qoraqalpog‘iston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati” axborotnomasi (doklad) chop etilib, hokimlik va tegishli idoralarga yuborildi.

Yig‘ilishda Qoraqalpog‘iston Respublikasi statistika boshqarmasining Kengashi raisi kun tartibining navbatdagi masalasi yuzasidan to‘xtalib, O‘zbekiston Respublikasining “Aholini ro‘yxatga olish to‘g‘risida” va "Rasmiy statistika to‘g‘risida"gi Qonunlariga muvofiq quyidagi ishlar olib borilayotganini ma’lum qilib, aholining demografik va ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari, yashash darajasi va farovonligi, qishloq xo‘jaligi holati va tarkibi hamda aholini ijtimoiy ahamiyatga molik asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan ta‘minlash istiqbollarini baholash tizimini yaratish uchun zarur ma’lumotlar bazalarini shakllantirishga qaratilgan ishlar haqida to‘xtaldi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-sentabrdagi PF-173-son Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 7-oktabrdagi 629-son qarori ijrosiga muvofiq, qator ishlar amalga oshirildi.

Jumladan, 2025-yilning 2-4-oktabr kunlari "hududiy statistika boshqarmalari hamda aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olishga vaqtincha jalb qilingan xodimlarni o‘qitish bo‘yicha dastur"ga muvofiq darslar o‘tkazildi;

Birinchi bosqichda, 2025-yil 20-25-oktabr kunlari Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat universiteti va statistika boshqarmasi xodimlari tomonidan 2 376 nafar mahalla yettiligi a‘zolari hamda 34 nafar alohida toifadagi muassasa vakillari, shuningdek, barcha shtab a‘zolari ham o‘qitildi;

Ikkinchi bosqichda, 2025-yil 10-14-noyabr kunlari 2450 nafar mahalla yettiligi a‘zolari o‘qitildi.

2025-yil 24-noyabr hamda 5-dekabr kunlari Qoraqalpog‘iston Respublikasida faoliyat ko‘rsatayotgan tashkilot va korxonalar xodimlariga o‘qitish ishlari amalga oshirildi (4 469 nafar).

Uchinchi bosqichda, 2026-yil 5-9-yanvar kunlari 2 668 nafar mahalla yettiligi a‘zolari o‘qitildi.

"Mahalla yettiligi" xodimlari tomonidan turar joy obyektlarining GPS-koordinatalarini qayd etish jarayonini ta‘minlash bo‘yicha zarur tashkiliy choralar ko‘rildi.

Bunga ko‘ra, 407 973 ta obyektlar manzillari GPS koordinatalarini aniqlandi va ushbu jarayonda ishtirok etgan 2 062 nafar mahalla yettiligi a‘zolariga zarur mablag‘lar to‘lab berildi.

Xodimlar planshet qurilmalari orqali ma’lumotlarni maxsus axborot tizimiga kiritish bilan ta‘minladi. Jarayonning uzluksiz va aniq amalga oshirilishi jarayonida yo‘riqnomalar, texnik ko‘mak va kunlik nazorat mexanizmi joriy etildi. "Mahalla

yetiligi" xodimlari tomonidan GPS-koordinatalarini maxsus axborot tizimiga kiritish jarayoni 2025-yil 27-dekabr holatiga 100 % to'liq yakunlandi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi bo'limlari hamda shahar va tuman bo'limlari tomonidan 2025-yilning yanvar-dekabr oylari davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining Farmon va Qarorlari hamda Davlat dasturlarining ijrosini ta'minlash bo'yicha "2025-yilda statistika ishlar dasturi" doirasida statistikaning asosiy prinsiplarini ta'minlagan holda qator ishlar amalga oshirilgan.

Jumladan, Davlat xizmatlari markazi tomonidan ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni 2026-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) 30 573 tani tashkil etib, ulardan 23 747 tasi yoki 77,7 % i faoliyat ko'rsatmoqda. 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida respublikada 3 969 ta korxonalar va tashkilotlar yangidan tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunida belgilab berilgan asosiy vazifalar va yuklangan majburiyatlar asosida statistika boshqarmasi tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlari to'g'risidagi 34 ta (oylik, choraklik, yillik,) statistika ma'lumotlar Qoraqalpog'iston Respublikasi hokimligi va boshqa tegishli idoralarga belgilangan tartibda berib borilgan.

O'tkazilgan so'rovlar, kuzatuvlar hamda qabul qilingan statistika hisobotlari natijalarini umumlashtirilib, tegishli ma'lumotlar Qo'mitaning tegishli tarmoq boshqarmalariga taqdim etilgan.

Statistika hisobotlari va kuzatuvlari natijasida olingan statistik ma'lumotlar umumlashtirilib, Qoraqalpog'iston Respublikasining rivojlanishini, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar natijalarini to'liq aks ettiruvchi kompleks statistik va tahliliy axborotlarni jumladan, 23 ta press-relizlar boshqarma rasmiy saytiga, 32 ta roliklarni Qoraqalpog'iston Respublikasi televideniyasida, 7 ta radio eshittirishlarida, 8 marotaba Qoraqalpog'iston Respublikasi gazetalarida hamda 463 ta ijtimoiy tarmoqlarda tahliliy axborot ma'lumotlari joylashtirib borilgan.

Shu bilan birga, Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi va tuman (shahar) statistika bo'limlari tomonidan, sohaga oid qonunchilik va me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablarini tadbirkorlik subyektlariga yetkazish yuzasidan muntazam ravishda profilaktika ishlari olib borilmoqda.

Jumladan, 2025-yilning yanvar-dekabr oylari davomida 3 025 ta respondentlarga tushuntirish ishlari olib borilgan.

Undan tashqari, respondentlar va statistika organlari o'rtasida amaldagi qonunchilikda belgilangan munosabatlarni yanada kuchaytirish orqali samarali hamkorlik o'rnatish, kelib tushgan savol, taklif va muammolarni o'rganish, mavjud muammolarni tezkor ravishda bartaraf etish va kelgusida oldini olish maqsadida, hududiy statistika organlari tomonidan, ijtimoiy tarmoqlar orqali respondentlar uchun tushuntirishlar tashkil etiladi. Ushbu maqsadlar uchun ijtimoiy tarmoqlar, xususan "Telegram" tarmog'ida boshqarmada 1 ta, har bir tuman (shahar) statistika bo'limlari

tomonidan 17 ta doimiy faoliyat olib boradigan maxsus guruhlar tashkil etilib, ularga jami 3 681 ta respondentlar jalb etildi.

Shu bilan birga, Qoraqalpog‘iston Respublikasi statistika boshqarmasi va uning quyi tizimlari tomonidan profilaktika ishlarini yanada kengaytirish maqsadida respondentlarga ularning huquq va majburiyatlari, statistika sohasiga oid qonunchilik va me‘yoriy-huquqiy hujjatlar talablarini tushuntirish bo‘yicha mahalliy ommaviy axborot vositalari (televideniye, radio, gazeta va jurnallar) orqali 217 ta chiqishlar tashkil qilindi.

Boshqarma tomonidan PQ-2881-son Qarorini ijrosini ta‘minlash maqsadida har oyning juma kunlari ijro xujjatlari holati yuzasida 62 ta bayonnomalar rasmiylashtirilgan. Yig‘ilish yakuni bilan tasdiqlanayotgan bayonnomalari Qo‘mita tomonidan berilgan namuna asosida shakllantirilmoqda. Nazorat xujjatlari bayonlarda ko‘rsatilib, ijro holati doimiy nazoratga olingan.

2025- yil IV choragida Qoraqalpog‘iston Respublikasi statistika boshqarmasi markaziy apparatiga jami 1 556 ta hujjat kelib tushgan. Shulardan, 918 tasi yuqori turuvchi tashkilotlardan, 638 tasi vazirlik va idoralardan hamda 94 tasi XDFU hujjatlar kelib tushgan. Ushbu korrespondensiyalar “edo.ijro.uz” dasturiga kiritilgan, ijrosi kunlik nazoratga olingan bo‘lib, boshqarmaning 24 ta buyruqlari ishlab chiqildi va ijroga qaratildi.

Milliy statistika qo‘mitasiga 2025 yil IV choragida jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlarning jami soni 143 tani tashkil etib, ularning 15 (10,4 %) tasi jismoniy shaxslar, 128 (89,3%) tasi yuridik shaxslar hissasiga to‘g‘ri keldi.

Shundan, 76 ta murojaat sayyor qabuldan og‘zaki murojaat, 67 tasi to‘g‘ridan - to‘g‘ri kelib tushgan murojaatlardan iborat.

Yig‘ilish so‘nggida statistika faoliyatini tashkil etish, tuman (shahar) statistika bo‘limlari faoliyati samaradorligini oshirish bilan bog‘liq masalalar muhokama etilib, bu borada amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalar belgilab berildi.